RAQAMLI PLATFORMALAR SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Solijonova Oydinoy Ne'matjon qizi
Namangan davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi talabasi
oydinsolijonova4@gmail.com

Annotatsiya. *O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining samarasi, eng avvalo mulkiy munosabatlarning o'zgarishi, turli xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanishi va buning uchun davlat bosh islohotchi sifatida iqtisodiy imkoniyatlar yaratib berayotganligi bilan izohlanadi.. Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan iqtisodiy imkoniyatlarni kuchaytirishga g'oyat katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish, boshqarish, tartibga solishga muhim o'rin berildi.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik, xususiy korporatsiya, elektron tijorat , savdo platformalari, tadbirkor, kichik va o'rta biznes,raqamli transformatsiya.*

Kirish

Kichik biznes tushunchasi kompaniya, xususiy korporatsiya yoki yakka tartibdagi tadbirkor ko'rinishida tasniflanadi, u xususiy korporatsiya va oddiy biznesga nisbatan kamroq xodimlar va kam miqdordagi daromadga ega. "Kichik" ta'rifi - mamlakat ko'magiga murojaat qilish va yengilliklarga ega bo'lgan soliq siyosiy faoliyatiga ega bo'lish nuqtai nazaridan farq qilinadi[1].

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga doir ko'plab jadal islohotlar amalga oshirildi.Quyidagi jadvalda ushbu sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar aks ettirilgan.(1-jadval)

O'zbekiston Respublikasida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati doirasida qabul qilingan me'yoriy –huquqiy hujjatlar xronologiyasi.[2]

(1-jadval)

t/r	Nomi	Mazmuni	Yil
1	Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk	Bozor mexanizmi samarali ishlashi uchun tegishli shart-sharoitlarni	**1994**

[1] KICHIK BIZNESNI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH ASOSLARI Qo'ldoshev Sanjar O'tkir o'g'li Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi (PHD) Orcid: 0009-0005-2406-904X

[2] Muallif tomonidan tayyorlandi.

	manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-745-son Farmoni[3]	ta’minlash, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora tadbirlari	
2	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab- quvvatlash davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 344-son qarori [4]	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonini jadallashtirish va davlat, xo‘jalik va jamoatchilik tuzilmalarining qulay tadbirkorlik muhiti yaratish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirishni ta’minlash	**1995**
3	Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 240-son qarori[5]	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash chora tadbirlari	**1996**
4	Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1702-son Farmoni [6]	Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish, uni raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkonini beradigan zamonaviy xorijiy uskunalar va texnologiyalar bilan ta’minlash maqsadida, shuningdek jalb etilayotgan xorijiy kredit mablag‘lardan samarali foydalanish chora tadbirlari	**1997**
5	Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil	**1998**

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.01.1994 yildagi PF-745-son
[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 344-son qarori , 28.08.1995
[5] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 240-son qarori, 09.07.1996
[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1702-son Farmoni, 31.01.1997

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1987-son Farmoni [7]	etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalarni bevosita olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish	
6	Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 754-I-son Qonuni[8]	Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari (umumiy qoidalar, tadbirkorlik faoliyati sub’yektlarining huquqlari, majburiyatlari, tadbirkorlikni rag’batlantirish va boshqalar)	**1999**
7	Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi faoliyatini faollashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 57-son qarori[9]	Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirishga doir vazifalardan kelib chiqqan holda kichik biznesni rivojlantirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish, tadbirkorlar faoliyatini faollashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlarining ishonchli kafolatini ta’minlash, kichik va xususiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash	**2000**
8	Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2886-son farmoni[10]	Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalarni bevosita olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish	**2001**
9	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan	kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari	**2002**

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1987-son Farmoni, 09.04.1998
[8] O‘zbekiston Respublikasining 754-I-son Qonuni, 14.04.1999
[9] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 57-son qarori, 17.02.2000
[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2886-son farmoni, 2001-yil 19-iyun

	qonun hujjatlarini sud amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 20/107-son qo‘shma qarori [11]	himoyasini ta’minlash chora tadbirlari	
10	Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 563-son qarori[12]	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlariga kredit berish tizimini tashkil etishni takomillashtirish	**2003**
11	Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1112-son Qarori[13]	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yanada rivojlanishini rag‘batlantirishni kuchaytirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida uning rolini oshirish, yangi ish joylarini shakllantirish va aholi bandligini ta’minlash, shuningdek, xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda yuritish uchun qo‘shimcha ravishda qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlash	**2009**
12	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini	Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo‘lidan jadal harakat qilish,	**2011**

[11] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 20/107-son qo‘shma qarori, 25.10.2002
[12]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 563-son qarori, 24.12.2003
[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1112-son Qarori, 15.05.2009

	shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4354-son Farmoni[14]	tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta’minlash	
13	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2022-son qarori[15]	Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari va fermer xo‘jaliklarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor konyunkturasi o‘zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni ta’minlash	**2013**
14	Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir	Sanoatning ayrim sermehnat tarmoqlari bo‘yicha kichik korxonalar xodimlarining o‘rtacha yillik cheklangan sonini ko‘paytirish va kichik tadbirkorlik (biznes) sub’yektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasiga o’zgartirishlar kiritish	**2014**

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4354-son Farmoni, 24.08.2011
[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2022-son qarori, 08.08.2013

	qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 178-son qarori[16]		
15	Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4725-son Farmoni[17]	O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xususiy mulkning o‘rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish	**2015**
16	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2507-son qarori[18]	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini yanada kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan fermer xo‘jaliklarining mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish, eksportga chiqarishdan oldingi moliyalash sharoitlarini yaxshilash hamda Respublikaning eksportga yo‘naltirilgan xo‘jalik sub’yektlarining ustav kapitalida qatnashishini tashkil etish	**2016**
17	Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida	Xususiy tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari va kafolatlarini yanada mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi vositalarini yaratish, tadbirkorlik subyektlarining	**2017**

[16] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 178-son qarori, 03.07.2014
[17] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4725-son Farmoni, 15.05.2015
[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2507-son qarori, 16.03.2016

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3225-son Qarori[19]	kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, shu asosda yangi ish o‘rinlarini tashkil etishni rag‘batlantirish va respublika bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish	
18	Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5490-son Farmoni[20]	Biznesni rivojlantirishdagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub’yektlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish, mamlakatda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash	**2018**
19	Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-306-son qarori [21]	kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “uzluksiz xizmatlar zanjiri”ni yaratish (“Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturining tashkiliy-institutsional tuzilmasi; markazlar tomonidan tanlab olingan tashabbuskorlar biznes ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida qisqa va o‘rta muddatli amaliy o‘quv kurslarida o‘qitilishi; amaliy o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat olgan tashabbuskorlar dastur doirasidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanishi va boshqalar)	**2023**
20	Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks	“Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur)	**2024**

[19] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3225-son Qarori, 17.08.2017
[20] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5490-son Farmoni, 27.07.2018
[21] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-306-son qarori, 14.09.2023

	dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 37-son qarori[22]	amalga oshirilishi; Dastur ishtirokchilarini tanlab olish tartibi Kichik biznesga ko‘maklashish markazlari tomonidan o‘qitish jarayonini tashkil etish; moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish yo‘nalishlari va tartibi; tashabbuskorlarga konsultativ xizmatlar ko‘rsatish tartibi.	
21	Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-50-son Farmoni [23]	Kichik va o‘rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlash	**2025**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-50-son, “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi farmoni doirasida ushbu sohaga oid ko’plab ustuvor yo’nalishlar belgilandi. Xususan:

- Kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda — 34 foizga, eksportda — 34 foizga va aholi bandligini ta’minlashda 75 — foizga yetkazish;
- Kamida 600 nafar kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni “chempion” tadbirkorlarga aylantirish;
- Ichimlik va oqova suv, yo‘l, qurilish, kommunal xo‘jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish;
- 100 nafardan ko‘p ishchisi bor tadbirkorlik subyektlari sonini 4 mingga yetkazish;

[22] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 37-son qarori, 20.01.2024
[23] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-50-son Farmoni, 19.03.2025


- Sanoatni jadal rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofislarini tashkil etish hisobiga kamida 100 ta kichik va o‘rta biznes subyektlarida brend mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;
- Kichik biznes subyektlari ishtirokida kamida 200 ta startap loyihalarni amalga oshirish;
- Uzoq muddatli ijaraga berilgan 30 ming gektar ekin yer maydonida yuqori daromadli ekinlarni yetishtirish, 16 ta ixtisoslashgan agrokompaniya faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda 9 ta zamonaviy agrosanoat xo‘jaligini tashkil qilish.[24]

Asosiy qism,

O’zbekiston Respublikasida olib borilgan sa’y harakatlar ya’ni qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, soliq imtiyozlari, moliyaviy qo’llab quvvatlash mexanizmalari hamda tadbirkorlik muhitini liberallashtirishga qaratilgan islohotlar natijasi o’laroq, ushbu tarmoq bo’yicha tadbirkorlik sub’yektlari soni yildan yilga ortib borayotganining guvohi bo’lishimiz mumkin. Xususan, O’zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub’yektlari soni 2025-yilga kelib , 2010-yilning mos davriga nisbatan 2,4 barobarga ortdi.(1-diagramma)

O’zbekiston Respublikasida faoliyat ko’rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’yektlari soni.(yillar kesimida)[25]

(1-diagramma)



Biroq, bugungi kunga kelib raqamli transformatsiya global iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi, bunda onlayn savdo platformalari zamonaviy biznesning ajralmas qismiga aylandi va dunyodagi deyarli barcha davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyati an’anaviy savdo aloqalaridan uzoqqa chiqib

[24] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-50-son Farmoni, 19.03.2025
[25] Stat.uz . O’zbekiston Respublikasi rasmiy sayti.

ketishga ulgurdi. Elektron tijoratning rivojlanishi va Internetda savdo platformalarining paydo bo‘lishi tufayli yuzma-yuz uchrashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj yo‘qolib bormoqda. Shuningdek , hozirda dunyoning yetakchi davlatlari yirik marketplayslar(onalyn bozorlar)ga, elektron tijoratga katta e’tibor qaratishmoqda. Bunga asosiy sabab shuki, onlayn savdo an’anaviy savdodan ko’ra mijoz uchun har tomonlama qulay hamda raqobatbardosh.

Eng muhimi, xaridorlar onlayn xarid qilish, narxlarni solishtirish yoki xarid qilish sayohatini boshlash uchun eBay, Amazon yoki Walmart kabi bozorlarga oqib kelishmoqda. Ko'pgina iste'molchilar mahsulot sotib olmoqchi bo'lganlarida Google yoki chakana veb-saytlardan emas, balki bozorlardan boshlashadi. Dunyodagi top 10 talikdan joy olgan onlayn bozorlardan biri Amazon ko'plab xaridorlar uchun bozor veb-saytidir. Amazon xaridorlarining taxminan 44 foizi boshqa saytdan xarid qilishdan oldin har doim Amazondagi narxlarni tekshirishlarini aytishadi. Va u dunyodagi eng ko'p tashrif buyurilgan 15 veb-saytlar qatoriga kiradi.

eBay katta global bozor ulushiga ega eng yirik onlayn bozorlarga tegishli. Platforma butun dunyo bo'ylab 180 milliondan ortiq xaridorlarga xizmat ko'rsatadi va butun dunyo bo'ylab 190 ta bozorda ishlaydi.

Etsy - xaridorlar maxsus, ijodiy va g'ayrioddiy narsalarni topishlari mumkin bo'lgan global bozor. Bozor, mahsulotni sotuvchi shaxs tomonidan yaratilgan qo'lda yasalgan buyumlarni sotish uchun mo'ljallangan. U hunarmandlar, rassomlar, kollektorlar do'konlari uchun javob beradi. Etsy bozorida sotuvchilar uchun eng yaxshi amaliyotlardan biri bu mahsulotni chiroyli suratga olishdir.[26]

2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, O’zbekistonda yetakchi onlayn savdo platformalari foydalanuvchilar soni bo'yicha o'sishni davom ettirmoqda. Masalan, OLX.uz va Click.uz kabi platformalarda o'rtacha oyma-oy faol foydalanuvchilar soni 1,2 millionga yetgan, bu esa 2023 yilga nisbatan 18% o'sishni bildiradi. Shunga mos ravishda To'lov tizimlaridan foydalanuvchilar statistikasi ham ijobiy o'sishni ko'rsatadi: Payme va Click orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni oyiga taxminan 4,5millionni tashkil qiladi. Xaridlar hajmi bo'yicha esa, o'rtacha bir tranzaksiya qiymati 350 000 so'mni tashkil etib, umumiy oylik savdo hajmi 1,5 trillion so'mga yetmoqda. Mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan xaridlar umumiy savdoning 62%ini tashkil qilmoqda.[27]

Xulosa

O’zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati doirasida qabul qilingan huquqiy baza va amalga oshirilgan izchil islohotlar ushbu soha rivoji uchun ulkan asos va dastlabki poydevor hisoblanadi. Shuningdek,

[26] https://webinterpret.com/en/blog/top-online-marketplaces
[27] O'ZBEKISTONDAGI ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARI VA ULARNING ASOSIY KO'RSATGICHLARI Yazdonov Umidjon Mamatkulovich Samarqand iqtisodiyot va serves instituti.

tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining internet tarmoqlari bilan integratsiyalashuvi ushbu tarmoq doirasida raqobatbardoshlikni yanada oshiradi ya'ni iste'molchilar uchun yanada ko'proq qulayliklar yaratilishiga asos bo'ladi va bu orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyot darajasi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 .O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid hujjatlar.
2.O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. – "O'zbekiston iqtisodiyoti statistik to'plami", Toshkent, 2024.
3.World Bank. Digital Economy for Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington D.C., 2023.
4.OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing.
5.UNCTAD. Digital Economy Report 2022. United Nations, Geneva.
6.Turdiyev Sh. "O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy asoslari". – Toshkent, 2021.
7. Kichik biznesni tashkil qilish va boshqarish asoslari Qo'ldoshev Sanjar O'tkir o'g'li Buxoro Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi (PHD) Orcid: 0009-0005-2406-904X
8.Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9.Mirzaev B. "Raqamli iqtisodiyot va uning kichik biznesga ta'siri" – Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, 2023.
10.Hasanov S. "Xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari". – Toshkent, 2022.
11.IMF (International Monetary Fund). World Economic Outlook: Digital Transformation. 2024.
12. Stat.uz O'zbekiston Respublikasining rasmiy sayti.
13 https://webinterpret.com/en/blog/top-online-marketplaces
14.O'zbekistondagi elektron tijorat tizimlari va ularning asosiy ko'rsatgichlari Yazdonov Umidjon Mamatkulovich Samarqand iqtisodiyot va serves instituti.